

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон
қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт,
филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик
диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия
этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2023-2/4
Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издаётся с 2006 года**

Хива-2023

МУНДАРИЖА
ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Abduvokhidova H. Translation of agricultural terms	5
Artikova N.S. Dialogik nutq to‘liqsiz gaplarni yaratuvchi omil sifatida	7
Artikova N.S. Methods of research of binuclear non-verbal sentences	10
Atajanova N.F. Xorazmlik shoiralar ijodidagi mumtoz adabiy an’analarning davom ettilishi xususida	14
Azizova M. Comprehensive understanding english language in ESP classes	18
Babakulova L.R. Terminology and translation problems in teaching English	21
Bobojonova N.J. Categorization in english cognitive linguistics	23
Chorieva A., Lokteva N. American literature’s “Family chronicle genre” in the second half of the 22th century	26
Dalieva M.X. Semantic and cognitive approach to the modern english terminology	28
Daminov N.K. Formation of resistance to stress in the process of simultaneous interpreting	30
Davletova D.N. Fe’lli kollokatsiya (turg‘un birikma) tushunchasi va uning ingliz va o‘zbek tillarida ifodalanishi	35
Erdanova Z.A. Description of human professional activity in English and Uzbek phraseology	37
Eshniyozova G.H. Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida qo’llanilgan badiiy san’atlaring lingvopoetikasi	40
Haydarov A.A., Xayrullayeva G. Turli sistem tillarda so’z ma’nolari kuchaytirishning leksik vositalari	42
Jabborova H.A. Radio tilining milliy – madaniy xususiyatlari: hushmuomalalik tamoyili	45
Jalilova L.J., Axmedova M.F. J.K. Roulingning “Garri Potter” asarida yosh psixologiyasi	47
Kadirova A.Kh. Qualification and skills required of a simultaneous interpreter	50
Kasimova S.M. About the mechanisms that provide understanding of the original text while speaking text in the target language	52
Kimsanboyeva B.N. Kvantitativlikning topishmoqlarda izohlanishi	55
Khaydarova L. The description of social life and the usage of syntactic stylistic devices in the novel “Hard times” by Charles Dickens	57
Khayitova D.B. Language units as means of intercultural communication	61
Masharipova Z. Halima Ahmedova she’riyatida pafosning namoyon bo‘lishi	63
Mirabdullayeva S., Abduvokhidova H. Ingliz va o‘zbek tillarida metaforalaring tavsifi, ishlatalishi va ilmiy ahamiyati	68
Narzulaeva D.B. Miracles of the Holy Koran	70
Niyazova M.Kh., Tuxtayeva M.A. The use of proverbs in the speech of characters by english and uzbek writers	73
Niyazova M.X., Temirova M. Dunyo tilshunosligida frazeologik birliklarni o’rganishning nazariy asoslari	75
Osmanov M.T. Cognitive and linguistic factors in improving reading comprehension on the base of illustrated texts	77
Polvannazirova S.X. Kontrastiv lingvistika va tarjimaning o’zaro munosabati	79
Qarshiyeva Sh.T., Yuldashev A.A. O‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning qiyosiy etimologiyasi	82
Qobilova N.S., Barotova N.Sh. Linguistic and cognitive features of negative attitudes in english and uzbek languages	84
Qobilova N.S., Nurullayeva U.B. Frazeologik birliklar xalqning milliy-madaniy xususiyatlari oynasi sifatida	87
Qodirova H.X. Ingliz va o‘zbek tillarida soxta diskursning pragmatik parametrleri	91
Qosimova F.X., A’zamjonova M.S. Ingliz va o‘zbek lingvokulturologiyasida “Baxt” konsepti	93
Qurbanova M.I. Alisher Navoiy xamsasidagi Farhod va Majnun obrazlarining qiyosiy tahlili	96
Ochilova N. Tarjimada sinonimik qatordagi so’zlardan foydalanish muammolari	98
Raximova M.A. Termin va atamalar haqida ayrim mulohazalar	102
Raxmatova M.M., Aslonova Sh.Z. Inson kommunikatsiyasining hosil bo`lishi jarayonida diskursning roli	105

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SOXTA DISKURSNING PRAGMATIK
PARAMETRLARI**

H.X.Qodirova, tayanch doktorant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Pragmatikada soxta diskurs va nutq aktlari tushunchasi bugungi zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur maqola soxta nutq aktlarining pragmatik xususiyatlari tahliliga qaratilgan. Maqolada soxta nutq aktlari voqealanishining turli yo'llari, turlari o'rganilib, amalga oshirilgan tahillar asosida ularning pragmatik omillarini yuzaga keltiruvchi vositalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Soxta diskurs, pragmatika, pragmatik parametrlar, manipulyatsiya, presuppositsiya, implikatura.

Аннотация. Понятие ложного дискурса и речевых актов в pragматике остается одной из актуальных проблем современной лингвистики. Данная статья посвящена анализу pragматических признаков ложных речевых актов. В статье исследуются различные способы и виды возникновения ложных речевых актов, а также по результатам выделяются средства, создающие их pragматические факторы.

Ключевые слова: Ложный дискурс, pragматика, pragматические параметры, манипуляция, пресуппозиция, импликатура.

Abstract. The concept of false discourse and speech acts in pragmatics remains one of the current problems of modern linguistics. This article focuses on the analysis of pragmatic features of fake speech acts. In the article, different ways and types of occurrence of false speech acts are studied, and the tools that create their pragmatic factors are highlighted based on the results.

Key words: False discourse, pragmatics, pragmatic measures, manipulation, presupposition, implicature.

Kirish. Til tizimi taraqqiyotining boshlang'ich nuqtasi (davri) pragmatikadan boshlanadi deyish mumkin. Zero, til dastlabki o'rinda so'zlovchining shaxsiy istagi, foydasi uchun xizmat qiladi. Lisoniy faoliyatning pragmatik xususiyatlari, bu xususiyatlarni yuzaga keltiruvchi omillarni o'rganish tilning ijtimoiy mohiyatini aniqlash uchun muhimdir. Bu lisoniy muloqotning ijtimoiy va ruhiy -psixologik qonuniyatlar bilan moslashgan holda ro'yobga chiqishini va shu asnoda til tizimi rivojlanishini tasdiqlovchi dalillar topish imkonini beradi.

"Pragmatika" (yunoncha pragma-ish, harakat) aslida falsafiy tushuncha bo'lib, u Suqrotdan oldingi davrlarda ham qo'llanishida bo'lgan va keyinchalik uni J.Lokk, E.Kant kabi kabi faylasuflar Aristoteldan o'zlashtirganlar. Amerika va Yevropada bu targ'ibotning keng yoyilishida CH. Pirs, R. Karnap, CH. Morris, L. Vitgenshteyn kabi tilshunoslarni alohida qayd etmoq kerak.

Pragmatika nuqtai nazaridan, tilning strukturasi – bu bir nechta belgilarning harakatli sitemasi orqali ifodalananishidir. Agar semantik qoidalar belgi vositalarini boshqa obyektlar bilan bog'lab tursa, sintaktik qoidalar belgi vositalari orasidagi bog'liqlikni aniqlaydi, pragmatik qoidalar ishora vositasi tarjimonlar uchun belgi bo'lib xizmat qiladigan shartlarni bildiradi. Ushbu yondashuv bilan ilgari ishlatilgan ba'zi atamalar yangi nuqtai nazaridan paydo bo'ladi. Shunday atamalardan biri yolg'on bo'lib, uni pragmalingvistika predmetiga xorijiy olim Yu.S. Stepanov olib kirgan: "Tilni tanlash - bu mavjud repertuardan o'z fikrini yoki his-tuyg'ularini eng yaxshi usulda ifodalash, eng to'g'ri yoki chiroylı ifodalash yoki vaziyatga eng mos keladigan , eng muvaffaqiyatli yolg'on uchun (muallif tomonidan ta'kidlangan) ; tinglovchiga yoki o'quvchiga eng yaxshi ta'sir qilish uchun - uni ishontirish yoki hayajonlantirish va harakatga keltirish, yoki kulish yoki chalg'itish uchun".

Tahlil va natijalar. Yolg'onning pragmalingvistik tavsifidan ko'zlangan maqsad yolg'on kategoriyasining mustaqilligini o'rganish, pragmalingvistikaning boshqa kategoriyalari bilan aloqasi orqali uning konstitutsiyaviy xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, yolg'on yordamida nutqning ta'sir qilish xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Shu nuqtai nazaridan, yolg'on pragmatikasini qabul qiluvchiga nutq ta'sirini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun yolg'on bayonotni qurishni o'rganadigan semiotikaning bir bo'limi sifatida aniqlash mumkin. Pragmalingvistikaning mavjud

kategoriyalari belgilarning o'z foydalanuvchilariga munosabatini o'rganish va tushuntirish uchun dolzarb bo'lib, pragmalingvistika ichidagi yolg'oni o'rganishda olingan natijalarini tizimlashtirishga imkon beradi.

Hozirgi bosqichda pragmalingvistika bir necha kategoriyalarni o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib olgan bo'lib ular quyidagilar: deyksis, referensiya, presuppozitsiya, hukmni baholash, taklif, kutish kategoriyasi, xushmuomalalik kategoriyasi, tanlov toifasi, so'zlovchining ijtimoiy holati, soxtalik va boshqalar. Shubhasiz, mahalliy va xorijiy pragmalingvistika taraqqiyotida o'rganiladigan asosiy konseptual kategoriyalar juda xilma-xildir. Buning sababi shundaki, ular mantiq, ritorika, stilistika, grammatika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, nutq nazariyasi, aloqa nazariyasi va boshqalarni o'rganishning uzoq tarixiga ega bo'lganlarni o'z ichiga oladi. Propozitsiya va referensiya matn mazmunining denotative qismini tashkil etib, mahalliy va xorijiy adabiyotlarda yetarlich ra'y qilishga yordam beradi. Propozitsiya bilimni yetkazishning o'ziga xos shakli bo'lib, u axborotni to'plash va saqlashning kognitiv strukturalari qatoriga kiradi. Ammo propozitsiya hodisasi tahlilida uning axborot tashish xususiyati bilangina chegaralanib qolmaslik darkor. Soxta yoki umuman turli ko'rinishdagi nutqiy tuzilmalarning mazmunini belgilovchi o'lchovlardan yana biri presuppozitsiyadir. R.Stolneyker ta'biricha, "presuppozitsiya talab qilinayotgan lisoniy faoliyat ijrosidan oldin impitsit nazarda tutilgan propozitsiyadir". (Stalnaker, 1978). Misol uchun. "Ahmad ikki boshli ilonni ushladi" va "Ahmad ikki boshli ilonni ushlanadi" qabilidagi gaplarni matnda qo'llash va ularni tushunish uchun so'zlovchi hamda tinglovchi ikki boshli ilonning mavjudligi (yoki mavjud emasligi) bir xilda ma'lum bo'lishi kerak.

Mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan faol muhokama qilinayotgan kategoriyalardan biri - bu yolg'on, soxtalik kategoriyasidir. Yolg'on kategoriyasi ancha keng tushuncha bo'lib, brinch navbatda obyektiv voqelikni buzishning muhim xususiyatlarini aks ettiradi. Pragmalingvistika shakllanishining dastlabki bosqichida 'yolg'on' tushunchasi tasdiq gaplarning o'lchovlaridan biri sifatida qaraldi. Keyinchalik esa, mashhur tilshunos Serl tomonidan yolg'on tushunchasi o'zgacha talqin qilinib, nutq aktlari muhim o'lchovlarini buzish sifatida qarala boshlandi. Va vaqt o'tishi bilan boshqa tilshunos olimlar ham yolg'onning pragmatik xususiyatiga turlicha ta'riflarini keltira boshladilar.

Yolg'oni adresant nutqi bilan bog'liq holda o'rganish juda muhim, sababi yolg'on yoki rost bayonotga bo'lgan munosabat tinglovchining nutqiy qobiliyatiga, muloqot qoidalariga, tanlov imkoniyatlariga va shuningdek, uning ruhiy holatiga (hissiy holatidagi o'zgarish) ijtimoiy odatlariga bog'liq bo'ladi. Yolg'oni bayonotning subyekti bilan bog'lab o'rganishda gapning pragmatik ma'nosi (matnosti, ishora), so'zlovchining havolasi, pragmatik presuppozitsiya, so'zlovchining o'zi bildirayotgan narsaga munosabati (ironiya, takliflilik) muhim ahamiyatga ega.

Bayonotning haqiqat/yolg'onligi kategoriyasi pragmatik kuzatishlar uchun asosiy material bo'lgan nutqiy muloqotdagi ta'sir, nutq xatti-harakatlarining strategiyasi va taktikasi hamda ularning shakllanishidagi roli bayonning yashirin ma'nolari, presuppozitsiya, bayonning implikativligi kabi pragmatik tadqiqotning deyarli barcha "asosiy yo'naliishlari"da qo'llaniladi.

Muhokama. Yolg'onning pragmatik xususiyatlari va pragmatik kategoriyasi yuzasidan olib borilgan izlanishlar natijasida, implikatura, presuppozitsiya, yolg'onning manipulyativ kuchi, aktiv va passivlik xususiyatlari, pragmalingvistik tahlilda muhim rol o'ynaydi va bular yolg'on diskurs pragmatik aspektining ichki tuzilishini tashkil etadi. Pragmalingvistikada yolg'on kategoriyasi asosiy pragmatik qoidalarning nomuvofiqligi yoki buzilishi sifatida belgilanadi va o'zbek tilida gap ma'nosini pragmatik talqin qilish yo'llari bilan tavsiflanadi. Soxtalikning tashqi kategorik formulasi bu uning ta'sir qiluvchi xususiyatlari bilan belgilansa, ichki formula yolg'on kategoriyasining konstitutsiyaviy xususiyatlarini ochib beradi: jo'natuvchi, qabul qiluvchi, istak, taxminlar, bayonotning implikatsiyasi kabi. Yolg'onning manipulyatsiya kuchi qabul qiluvchining yashirin, ongsizligida, jo'natuvchi tomonidan qabul qiluvchiga ta'sir qilish, qabul qiluvchi uchun foydalil bo'lgan qarorlar qabul qilish uchun til vositalari va nutq usullaridan foydalanishdadir. Ko'ssatilgan kuch jo'natuvchi tomonidan ma'lumotlarning yashirin qatlamlari, shuningdek, turli xil aloqa strategiyalari va taktikalari yordamida amalga oshiriladi.

Yolg'on bayonotni yaratish jarayoni va shartlari, nutqda yolg'onni loyihalashning pragmatik xususiyatlari yolg'onning pragmalingvistik nazariyasini asoslash va uni pragmatika nuqtai nazaridan o'lchash modelini yaratish uchun asos bo'ladi. Pragmatika yolg'on bayonotni amalga oshirish shartlarini, yolg'on nutq harakatlarining turlarini va yolg'on bayonot yuboruvchining niyatlarini o'rganish imkoniyatini oldindan belgilaydi.

Xulosa. Shunday qilib, yuqoridaq gaplar, ehtimol, pragmatik yoki pragmalingvistika uchun keng tarqalgan bo'lib, ular nafaqat soxtalikni, balki samimiylig / nosamimiylig, xolislik / tarafkashlik, taxminiylik, istehzo va boshqalar kabi nutq parametrlarini tahlil qilishga kiritilishi mumkin. Qabul qiluvchiga qo'yilgan fikr, baholash jo'natuvchi tomonidan matnning taklif bo'lмаган qismlarida - nutqning presuppozitsiyalarida, oqibatlarida, ta'sirida kiritiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kodirova Kholida Khayriddin kizi. (2022). The Analysis of Illocutionary Acts in Adventures of Tom Sawyer by Mark Twain. Miasto Przyszlosci, 28, 324–328.
2. N.A. Baskakov, A.S. Sodiqov, A.A. Abduazizov. Umumiyl tilshunoslik. T.,
3. Qodirova Holida Xayriddin qizi. (2022). Og'zaki nutq jarayonida soxta diskurs aktlarining yuzaga kelish omillari. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 280–282.
4. Safarov, SH. (2008). Pragmalingvistika. Toshkent, 77-80 .
5. Ленец А.В.(2010). Коммуникативный феномен лжи: лингвистический и семиотический аспекты, 119-145.
6. Рябинская, Н.С. Речь как социальное действие: основные понятия дискурсивного анализа / Н.С. Рябинская [Электронный ресурс] /2002/ Социологический журнал № 4 [Дата обращения: 01.03.2005]
7. Сусов, И.П. Лингвистическая прагматика / И.П. Сусов [Электронный ресурс] /2006/ Режим доступа <http://www.tversu.ru> [Дата обращения: 23.08.2007].

UO'K: 811+808.2+801.7

INGLIZ VA O'ZBEK LINGVOKULTUROLOGIYASIDA "BAXT" KONSEPTI

F.X.Qosimova, PhD, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

M.S.A'zamjonova, magistrant, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. Ushbu maqolada "konsept" tushunchasini qiyosiy o'rganishga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, konseptlar sirasiga kiruvchi "baxt" konsepti leksik-semantik tahlil qilinib, ingliz va o'zbek lingvokulturologiyasida ifodalanishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, leksik-semantik guruh, tushuncha, konsept, kognitiv lingvistik, frazeologik birliklar, milliy-madaniy birliklar.

Аннотация. Данная статья посвящена сравнительному изучению понятия «концепт». Также лексико-семантически проанализировано понятие «счастье», входящее в число концептов, и объяснено его выражение в английской и узбекской лингвокультурологии.

Ключевые слова: лингвокультурология, лексико-семантическая группа, понимание, концепт, когнитивная лингвистика, фразеологизмы, национально-культурные единицы.

Abstract. This article focuses on the comparative study of the concept of "concept". Also, the concept of "happiness", which is among the concepts, is lexically-semantically analyzed and its expression in English and Uzbek linguo-cultural studies is explained.

Key words: linguoculturology, lexical-semantic group, understanding, concept, cognitive linguistics, phraseological units, national-cultural units.

Lingvokulturologiya tilning o'ziga xosligini ma'lum belgilar orqali ongdagi va hissiy tuyg'ular bilan tildagi madaniyatni ko'rsatib beruvchi sohadir. Hozirgi kunda zamonaviy tilshunoslikning bu tarmog'ida juda ko'p tadqiqotlar olib borilib, yangiliklar kiritilmoqda. Xususan, V.N.Telia shunday yozadi: "Lingvokulturologiya – insonni, aniqroq qilib aytganda, insondagi madaniy omilni o'rganadigan fan" [1, 56]. Demak, lingvokulturologiya markazida madaniy hodisa sifatida insonning antropologik paradigmaidagi o'rni turadi. V.A.Maslovaning ta'kidlashicha, ushbu soha tilni sinxron va diaxronik tarzda o'rganadi. Muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilining lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganish zarurdir [1, 56]. Shuningdek, bir qator o'quv qo'llanmalar bu borada ishlab chiqilgan. Ular ichida eng diqqatga sazovori V.A.Maslova tomonidan yaratilgan darslik ekanligini

